

Date: 17<sup>th</sup> June-2025

**MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSENING JAMIYAT  
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

**Shukrulloyeva Eliza**

Buxoro davlat pedagogika instituti

1TT- 23 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif milliy qadriyatlar va ma'naviy meros har bir xalqning o'ziga xosligini, tarixini va madaniyatini belgilovchi muhim omillar ekanligini tahlil qilgan. Ular nafaqat jamiyatning ruhiy va madaniy asosini tashkil etadi, balki taraqqiyot jarayonlarida ham muhim rol o'ynashini izohlab bergan. Muallif milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati va ularni saqlash zarurati haqida so'z yuritadi.

**Tayanch so'zlar:** Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ma'naviy meros, xalq, jamiyat, diniy e'tiqodlar, taraqqiyot, tafakkur, sivilizatsiya.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron- bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariiga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan , uning ichki olamini boyitadigan, iymon irodasin,e'tiqodini mustahkamlaydigan vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabi bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz , urf- odatlarimiz, oyoqosti qilindi. Ona tilimiz , boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar , tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tatbiq etildi. Ular qoldirgan boy ma'naviy meros hali-hanuzgacha biz yoshlarga qo'llanma va yo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlar ular mansub bo'limgan xalq yo'q . Milliy qadriyatlar ular mansub bo'lgan xalqning tarixi, yashash tarzi, tili,urf-odatlari, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi .

Biz bu yo'lida islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz, xalqimiz orzu qilgan,



Date: 17<sup>th</sup> June-2025

jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi<sup>1</sup>.

Ayni shu nuqtai-nazardan qaraganda, xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanishlar davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi uning o'z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak choqqilarga ko'tariladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yangi sharoitda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirishga intilishimiz, bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevor qurmog'imiz lozim. Ya'ni Yangi O'zbekistonni barpo etish, yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirishimiz lozim.

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o'zining taraqqiyotiga qarab intiladi. Tabiatning buyuk hodisasi bo'lgan quyoshning ham erta saharda olamga yuz ko'rsatishi qanchalik go'zal va jozibali bo'lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir. "Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas"<sup>2</sup>

Milliy qadriyatlar — bu bir xalqning tarixan shakllangan, uning madaniyati, an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar to'plamidir. Ular xalqning o'zligini, ma'naviyatini va ijtimoiy hayotini belgilovchi asosiy omillardir. Milliy qadriyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. An'analar va urf-odatlari: Har bir millatning o'ziga xos an'analari va urf-odatlari mavjud bo'lib, ular avloddan-avlodga o'tadi. Bu an'analar xalqning tarixiy tajribasini aks ettiradi.
2. Tili: Millatning tili uning madaniyati va fikrlash tarzini ifodalaydi. Tili saqlab qolish va rivojlantirish milliy qadriyatlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega
3. San'at va adabiyot: Milliy san'at va adabiyot xalqning ruhiyatini, his-tuyg'ularini ifodalaydi. Ular orqali insoniyatning ma'naviy merosi boyitiladi. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga juda katta strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli barchasi shu yurtda istiqomat qilayotgan insonlarning orzu-istiklarining ro'yobi uchun qilinayotgan ishlardir, deb qarasak, bizningcha to'g'ri bo'ladi. Barkamol avlod, komil inson, yosh avlod tarbiyasini kabi vazifalar aynan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu jarayonlarning barchasining markazida insonlarning farovon hayot kechirishlari, xalqimizni ehtiyojlarini qondirish, ularning yaxshi yashashi, sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar yotadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu faoliyatning muhimligini unutmasligimiz lozim. Zero, davlatimiz rahbari aytib o'tganlaridek, "barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviyaxloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish"<sup>4</sup> kabi masalalar ma'naviy-

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T. 2022. B. 3.

<sup>2</sup> O'sha joyda. T. 2022. B. 4.

Date: 17<sup>th</sup> June-2025

ma'rifiy soha xodimlari oldidagi katta ma'suliyat yuklaydi. E'tirof etish kerakki, sohani isloh qilish doirasida muzeylarni innovatsion qayta tashkil etishni ko'zda tutuvchi Muzeylar renovatsiya dasturi tasdiqlandi. O'zbek xalqining qadimiy va betakror san'ati namunasi bo'l mish Xorazm "Lazgi"si esa "Xorazm raqsi – Lazgi" nomi ostida YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kirildi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi. O'z navbatida, 2019 yilning 10- 15 sentyabr kunlari Qo'qon shahrida YUNESKO shafeligida birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining o'tkazilishi, xalqaro hunarmandlar tashkiloti tomonidan Qo'qon shahriga "Dunyo hunarmandlari shahri" maqomining berilishi, o'zbek xalq amaliy san'atining xalqaro miqyosdagi yuksak e'tirofi bo'ldi. Termiz shahrida o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati, Shahrisabzda bo'lib o'tgan Xalqaro maqom san'ati xalqaro festivallari, shuningdek, Buxoro shahridagi "Ipak va ziravorlar" hamda Marg'ilon shahridagi "Atlas bayrami" kabi forumlarda dunyoning ko'plab davlatlaridan tashrif buyurgan madaniyat va san'at namoyandalari, xususan, hunarmandchilik sohasida o'z ilmiy ishi hamda amaliy faoliyati bilan dong taratgan mashhur olim va mutaxassislarning ishtirok etgani alohida e'tiborga loyiqidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini asrash hamda ulardan foydalanish faoliyati o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari beriladigan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritildi.

Ma'naviy meros - bu xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatları, diniy e'tiqodları va estetik tushunchaları yig'indisidir. Ma'naviy meros jamiyatning ma'naviyatini oshirishda, axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy meros quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Axloqiy qadriyatlar: Ijtimoiy adolat, halollik, mehr-oqibat kabi axloqiy qadriyatlar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi.
2. Diniy e'tiqodlar: Diniy e'tiqodlar insonlarning ruhiyatini shakllantiradi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi va ijtimoiy birlikni kuchaytiradi.
3. Estetik tushunchalar: San'at asarlari, musiqalar va adabiyot orqali ifodalangan estetik tushunchalar xalqning ma'naviyatini boyitadi.

Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros jamiyat taraqqiyotida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Ijtimoiy birlik: Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros xalqni birlashtiradi, ularni umumiy maqsadlar atrofida to'playdi.

2. Ruhiy barqarorlik: Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar xalqning ruhiyatini mustahkamlaydi, stress va muammolarni yengishga yordam beradi.

Date: 17<sup>th</sup> June-2025

3. Madaniy rivojlanish: Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros san'at, adabiyot va boshqa madaniy sohalarda innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

4. Zamonaviylashtirish: Milliy qadriyatlarni zamonaviy sharoitlarda saqlab qolish va rivojlantirish orqali jamiyat yangilanishi mumkin.

Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular xalqning o'zligini saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va ruhiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'yaydi. Shuning uchun, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish har bir insonning burchidir. Faqatgina bunday yondashuv orqali biz kelajak avlodlarga boy madaniyatimizni meros qilib qoldira olamiz.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T. 2022.
2. Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "O'zbekiston gazetasi". 2022 yil 21 dekabr.
3. Yangi O'zbekiston- demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T. 2021.
4. A. Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T. 2009
5. Jabborova S.S. The Role of Education in Improving Society's Spiritual Capacity. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences. International scientific-online conference. Published October 21, 2023. – Poland, 2023. – PP.73-76.
6. Jabborova S.S. Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. // "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy -axloqiy asoslarini optimallashtirish: muammo, yechim, va vazifalar" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2023. – B.459-461.
7. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyat mezonlari va ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. // "Yangi O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi taddiqotlarning monitoringi va optimallashtirishning dolzarb vazifalari": Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023. – B.304-307.
8. Jabborova S.S. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy salohiyatni yuksaltirishda qo'shgan hissasi. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Samarqand, 2023. - № S/6(3)-2023. - B.134-142. (09.00.00; №30)
9. Jabborova S.S. Prospects of Using Uzbekistan's Spiritual Authority. // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences. International scientific-online conference. - Turkish, 2023. – PP. 66-69.
10. Muhandislik grafikasida chizmalarni grafik dasturlar yordamida bajarishning afzalliklari va ahamiyati. ET Rustamov. Икро журнал 14 (02), 1038-1040.
11. Muhandislik grafikasini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyardan foydalanib o'qitishning ahamiyati. RE Tohiro维奇. pedagogik tadqiqotlar jurnali 3 (1), 407-410

Date: 17<sup>th</sup> June-2025

12. Aylanish va chiziqli sirtlarning tasnifi va amaliy qo'llanilishi.  
ET Rustamov. Pedagogik tadqiqotlar jurnali 2 (2), 266-269.
13. Chizmachilik fanidan detallarni tahlil qilishga oid qiziqarli masalalar tuzish. RE Toxirovich. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy 2 (21 ...
14. Типичные ошибки, допускаемые учащимися при выполнении чертежей по дисциплине инженерная графика. водоема.  
RE Tohirovich. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy 2 (21
15. Loyihalangan rejaga asosan maktabda chizmachilik darsini o'tish. (modellashtirish) ET Rustamov. интернаука, 55-57.
16. Muhandislik va kompyuter grafikasida chiziqli sirtlarning xossalari. ET Rustamov. икро журнал 15 (01), 493-495.